**07-01/72**
**03.07.2025 y.**

**"TASDIQLAYMAN"**
**Viloyat hokimi v.b,**
**Harbiy-ma'muriy**
**sektor rahbari**

**__________________ A.Boboyev**

**2025-yil ___ -iyul**

**Samarqand viloyati harbiy-ma'muriy sektorining navbatdagi yig'ilish**
**BAYONI**

2025-yil ____ -iyul | Samarqand shahri

| | |
|---|---|
| **Raislik qiluvchi:** | **A.Boboyev** – viloyati hokimi v.b, harbiy-ma'muriy sektor rahbari. |
| **Qatnashganlar:** | Harbiy-ma'muriy sektor ishchi guruhi a'zolari, viloyat hokimining o'rinbosarlari, kotibiyat mudirlari, boshqarma va tashkilot rahbarlari, tuman (shahar) hokimlari. |

## KUN TARTIBI:

**"Jasorat maktabi" o'quv yig'inining 2025-yildagi 2-mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida**

---

*(A.Boboyev, X.Tuxtayev, B.Quvatov, S.Boboyev, Q.Achilov, M.Hamdamov, A.Boboyev)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2023-yilning 13-yanvar hamda 2024-yil 12-yanvar kungi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida berilgan topshiriqlari va ko'rsatmalaridan kelib chiqib, majlis **qaror qiladi:**

**1. Viloyat hokimining o'rinbosari** (X.Tuxtayev), Markaziy harbiy okrug (Q.Achilov), **viloyat Ichki ishlar boshqarmasi** (R.Mamatov)**, Samarqand viloyati Mudofaa ishlar boshqarmasi** (B.Quvatov), **viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasi** (S.Boboyev)ning hududlarda profilaktik hamda probatsiya hisobidagi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va o'qitish bo'yicha jami 100 nafar yoshlar ishtirokida **"Jasorat maktabi"** loyihasining joriy yildagi 2-mavsumini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha olib borilayotgan tayyorgarlik ishlari haqidagi axborotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi (O'R QK KMT markazi)da "Jasorat maktabi" loyihasini o'tkazish dasturi **1-ilovaga muvofiq,** ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlar jadvali **2-ilovaga muvofiq,**

tuman (shahar)lardan ishtirok etuvchilar taqsimot jadvali **3-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin;

**3. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi** (R.Mamatov) shahar va tuman hokimlari bilan birgalikda o'tgan to'rt mavsumda ishtirokchilarni saralab olish borasida aniqlangan kamchiliklardan kelib chiqib, **uch kun muddatda** mazkur loyihada ishtirok etuvchi hududlardagi ichki ishlar organlarining profilaktik hamda probatsiya hisobida turgan jami 100 nafar yoshlar ro'yxatini shakllantirish va Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi (O'R QK KMT markazi)da tashkil etilgan viloyat Shtabiga taqdim qilsin va ushbu yoshlarning to'liq ishtirokini ta'minlash choralarini ko'rsin.

**4. Tuman va shahar hokimliklari, tegishli hamkor tashkilotlar bilan birgalikda** Ichki ishlar organlari tomonidan taqdim qilingan ro'yxat asosida yig'in ishtirokchilarining yuvinish anjomlari va sport mashg'uloti uchun sport kiyimi bilan o'rnatilgan tartibda ta'minlash choralarini ko'rsin.

**5. Markaziy harbiy okrug** (Q.Achilov), **Samarqand viloyati Mudofaa ishlari boshqarmasi** (B.Quvatov), **viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasi** (S.Boboyev), **viloyat Sport boshqarmasi** (J.Nurmanov), **Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi** (X.Meliyev) "Jasorat maktabi" loyihasining dasturida belgilangan tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha tegishli boshqarma va tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ysin.

**6. Markaziy harbiy okrug** (Q.Achilov) Okrug qo'mondoni kubogi uchun "Harbiy estafeta", **Viloyat Sport boshqarmasi** (J.Nurmanov) viloyat hokimi kubogi uchun "Milliy kurash", **viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasi** (S.Boboyev) Yoshlar ishlari agentligi kubogi uchun "Shaxmat", viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (R.Mamatov) IIB kubogi uchun "Voleybol", Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi (X.Meliyev) Ittifoqi kubogi uchun "Zakovat" intellektual o'yini musoboqalarini adolatli va yuqori saviyada tashkil etsin hamda g'olib sovrindorlarni o'rnatilgan tartribda taqdrilash choralarini ko'rsin.

**7. Viloyat Soliq boshqarmasi** (E.Tolliyev), **viloyat Savdo-sanoat palatasi** (D.Musinov), **"Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi** (D.Nabiyev)larga loyiha ishtirokchilaridan tadbirkorlik sohasiga qiziquvchi, o'z bizneslarini yo'lga qo'yish bo'yicha 10 kunlik seminar-treninglar tashkil etib, seminar jarayonlarida eng faol ishtirokchilarga imtiyozli kredit olishlari uchun maxsus sertifikatlar topshirsin.

**8. Viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (T.Maxmudov)**ga:

- loyiha ishtirokchilarining qiziqishlariga qarab kasb-hunarlarga o'qitish;

- Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazi hamda Qurilish sohasi malakali mutaxassislarini tayyorlash markazi o'quv bazasi asosida **qisqa muddatli** mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarga tayyorlash chorasini ko'rsin.

**9. Viloyat hokimining o'rinbosari** (R.Qobilov), **viloyat Madaniyat boshqarmasi** (O.Xaitov) **Samarqand shahri hokimi** (F.Umarov) bilan birgalikda

ishtirokchilarni kutib olish va kuzatish kunida ularning Samarqand shahridagi tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolarga bepul sayohatlarini amalga oshirish choralarini koʻrsin.

10. **Tuman va shahar hokimliklari shaxsan mas'ulligida** loyihaning oʻtgan 2024-yildagi 4 ta mavsumi hamda 2025-yil 1-mavsumida ishtirok etgan yoshlarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan amaliy ishlarni tashkil etish hamda ushbu yoshlarning keyinchalik ham kasb-hunarlarga oʻqitish, oilaviy shart-sharoitlarini oʻrganish va kafolatlangan ish joyi bilan ta'minlash, belgilangan tartibda probatsiya va profilaktik hisobdan chiqarish choralarini koʻrish vazifalari qat'iy belgilansin.

11. **Viloyat Madaniyat boshqarmasi** (O.Xaitov), **Samarqand garnizoni Ma'naviyat-ma'rifat markazi** (A.Abduxalilov), **viloyat Sport boshqarmasi** (O.Sobirov), **Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi** (X.Meliyev)larga loyiha doirasida ishtirokchilar dam olish vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida konsert dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy loyihalar, intellektual oʻyinlar, teatr tomoshalari, taniqli sportchi va san'atkorlar bilan uchrashuvlar, "Quvnoqlar va zukkolar" koʻrik-tanlovlarini tashkil etsin.

12. **Markaziy harbiy okrug** (Q.Achilov), **Samarqand viloyati Mudofaa ishlari boshqarmasi** (B.Quvatov)ga loyihani yuqori saviyada oʻtkazish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratsin, 100 nafar yoshlarni guruhlarga taqsimlab, har bir guruhga ofitser va serjantlarni biriktirsin, loyiha kunlari belgilangan hududda yigʻin-ma'muriyatini tashkil qilsin.

13. **Tuman (shahar) hokimlariga** loyihada ishtirok etadigan yoshlarni roʻyxat asosida 2025-yil 4-iyul kuni soat 9:00 ga qadar markazlashgan holda avtotransport vositalarida Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi (OʻR QK KMT markazi)ga olib borish va 13-iyul kuni soat 15:00ga ishtirokchilarni yashash manziligi qaytib ketishlari uchun transport masalalarini hal qilsin.

14. **Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi** (R.Mamatov) hamda **Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi** (A.Umarov)ga hududlardan keladigan loyiha ishtirokchilarini Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi (OʻR QK KMT markazi)ga kelib ketishlari uchun har bir tuman (shahar)ga bir dona kuzatuv mashinalari ajratish hamda yoʻl harakati xavfsizligini ta'minlash choralarini koʻrsin, 10 kun davomida ishtirokchilar joylashgan markazda jamoat tartibini saqlash maqsadida sutkalik navbatchilikni tashkil qilsin.

15. **Viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari** (F.Abilov) hamda **viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi** (B.Mirzayev)ga:

- 100 nafar loyiha ishtirokchilarini 10 kunlik ovqatlanish va harbiy kiyim-bosh va boshqa tashkiliy masalalarga ketadigan sarf-xarajatlarni harbiy-ma'muriy sektor jamgʻarmasi hisobidan belgilangan tartibda ajratish choralarini koʻrsin.

16. **Viloyat Sogʻliqni saqlash boshqarmasi** (S.Zayniyev) hamda **viloyat Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi** (L.Rustamov), **Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislarni**

**tayyorlash markazi boshlig'i** (A.Jabborov) bilan hamkorlikda loyiha ishtirokchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish, yig'in o'tadigan va ishtirokchilar joylashgan turar joylarda amaldagi karantin talablariga rioya qilgan holda tibbiy xizmat navbatchiligini tashkil etsin, tadbirlar davomida ishtirokchilar uchun tayyorlangan oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlar sifatini nazorat qilsin hamda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishini ta'minlasin.

**17. Viloyat Transport boshqarmasi** (R.Tojiyev)ga loyiha davomida yoshlarning belgilangan dasturga asosan Samarqand shahridagi tarixiy obidalarga harakatlanishlari uchun lozim bo'ladigan 4 dona avtobuslar bilan ta'minlasin.

**18. Viloyat hokimligi matbuot kotibi** (M.Ixtiyorov) **viloyat teleradiokompaniyasi** (D.Ismatov), **"Zarafshon va "Самаркандский вестник" gazetalari birlashgan tahririyati** (F.Toshev)ga loyiha jarayonlarini OAV va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam yoritib borish va maxsus rukn, ko'rsatuv hamda eshittirishlar orqali keng yoritish va efirga uzatish choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

**19.** Loyiha jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish bo'yicha **shaxsiy mas'uliyat tuman (shahar) hokimlari hamda manfaatdor boshqarmalar va idora rahbarlari zimmasi**ga yuklatilsin.

**20.** Ushbu bayonda belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari X.Tuxtayev zimmasiga yuklatilsin.

**Bayonlashtirdi** **M.Otamurodov**

Viloyat hokimligining
2025-yil ___ -iyuldagi
______-sonli bayoniga
1-ilova

UMUMIY BO'LIM

**Samarqand viloyati uyushmagan yoshlarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va o'qitish bo'yicha "Jasorat maktabi" o'quv yig'ini**
**DASTURI**

| Vaqti | Tadbirlar nomlanishi | Mas'ullar |
|---|---|---|
| **1-kun. 2025-yil** | | |
| $09^{00}$ ga qadar | Yig'in ishtirokchilarini IIB YHX vakillari kuzatuvida Samarqand shahridagi Qurolli Kuchlar Kichik mutaxassislarni tayyorlash markaziga yuborish. | Shahar va tuman hokimliklari |
| $09^{00}$ - $10^{30}$ | Yig'in ishtirokchilarini Samarqand shahrida joylashgan Qurolli Kuchlar Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazida kutib olish. | Markaz qo'mondonligi,<br>Yig'in ma'muriyati,<br>Viloyat IIB,<br>Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi,<br>Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi |
| $10^{30}$ –$13^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarini Markazda tibbiy ko'rikdan o'tkazish, hammomda cho'milish, harbiy kiyim-kechak bilan ta'minlash va safga qo'yish. | Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, Yoshlar ishlari boshqarmasi, Yoshlar ittifoqi, Markaz qo'mondonligi va yig'in ma'muriyati |
| $13^{00}$ – $14^{00}$ | Tushlik. | Yig'in ma'muriyati |
| $14^{00}$ – $14^{30}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $14^{30}$ – $15^{30}$ | **"Jasorat maktabi"** o'quv yig'ini dasturi bilan tanishtirish, yig'in ishtirokchilarini mutaxassisliklari bo'yicha guruhlarga bo'lish, guruhlarni nomlash, guruh sardorlarini tayinlash hamda yig'in ma'muriyati tomonidan ichki tartib qoidalarni yetkazish.<br>**(1-4 guruhlar 100 nafar):**<br>1-guruh Yosh tadbirkorlar guruhi (biznes reja tuzish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish);<br>2-guruh Yosh IT dasturchilar guruhi (kompyuterda ishlash va dastur tayyorlash dizayn );<br>3-guruh Yosh elektriklar guruhi *(uy elektro mantaj, sanoat elektro mantaj va zamoniyviy elektro mantaj)*;<br>4-guruh Yosh payvandchilar guruhi *(elektro payvandlash, gaz payvandlash, yarim avtomat payvandlash va argon payvandlash hamda metallarga ishlov berish).* | Yig'in ma'muriyati,<br><br>"Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi, viloyat Savdo-sanoat palatasi, Samarqand shahridagi ishga marhamat monomarkaz, Samarqand IT markazi, TATU Samarqand filiali, Yoshlar ishlari viloyat boshqarmasi va Yoshlar ittifoqi |
| $15^{30}$ –$16^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarni tantanali ochilish marosimiga tayyorgarlik ko'rish. | Yig'in ma'muriyati |
| $16^{00}$ – $17^{00}$ | **"Jasorat maktabi"** o'quv yig'inini **tantanali ochilish marosimi** (madaniy dastur, buyuk siymolarni teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlar, sportchilar va harbiylarning ko'rgazmali chiqishlari). | MHO qo'mondonligi, Samarqand viloyat hokimgili, Viloyat madaniyat boshqarmasi, Yoshlar ishlari boshqarmasi, Yoshlar ittifoqi, Samarqand garnizoni MvaMM |
| $17^{10}$ – $18^{10}$ | Yig'in ishtirokchilari bilan **sotsiometrik so'rovnoma** o'tkazish. | Samarqand davlat universiteti mutaxassis psixolog va sotsiologlari, MHO harbiy psixologi |

| | | |
|---|---|---|
| $18^{10} – 18^{40}$ | Yig'in ishtirokchilarni harbiy qism hududi bilan yaqindan tanishtirish. | Yig'in ma'muriyati |
| $18^{40} – 19^{00}$ | Shaxsiy vaqt | Yig'in ma'muriyati |
| $19^{00} – 19^{30}$ | Kechki ovqat. | Yig'in ma'muriyati |
| $19^{30} – 19^{50}$ | **"Feyed-back"** ( kun tahlili). | Yig'in ma'muriyati |
| $19^{50}$ - $21^{00}$ | **"Vatan"** kinofilmini namoyishi va muhokamasi. | Samarqand garnizoni MvaMM, Yig'in ma'muriyati |
| $21^{00}$ –$21^{30}$ | **"Axborot"** informatsion teledasturini ko'rish. | Yig'in ma'muriyati |
| $21^{30}$ –$21^{50}$ | Kechki sayr. | Yig'in ma'muriyati |
| $21^{50}$ –$22^{00}$ | Shaxsiy vaqt. | Yig'in ma'muriyati |
| $22^{00}$ | Uyqu. | Yig'in ma'muriyati |
| **2-kun. 2025-yil** | | |
| $06^{00}$ | Shaxsiy tarkibning umumiy uyg'onishi. | Yig'in ma'muriyati. |
| $06^{10}$ - $07^{00}$ | Ertalabki badan tarbiya. | |
| $07^{00}$ - $07^{40}$ | Yig'in ishtirokchilarini yuvinishi uchun shaxsiy vaqt. | |
| $07^{40}$ - $08^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarini ertalabki ko'rikdan o'tkazish. | |
| $08^{00} – 08^{20}$ | Nonushta. | |
| $08^{20} – 08^{30}$ | Ertalabki tarqatuvdan oldin shkuronalik mavzusida suhbat o'tkazish. | |
| $08^{35} – 09^{20}$ | "**Mening yurtim - mening faxrim**" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvi. | Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlar ittifoqi |
| $09^{25} – 13^{15}$ | Yig'in ishtirokchilarini mutaxassisliklar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish va bilimlarini oshirish maqsadida mashg'ulotlar tashkil etish;<br>1-guruh Yosh tadbirkorlar guruhi (biznes reja tuzish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish);<br>2-guruh Yosh IT dasturchilar guruhi (kompyuterda ishlash va dastur tayyorlash dizayn );<br>3-guruh Yosh elektriklar guruhi *(uy elektro mantaj, sanoat elektro mantaj va zamoniyviy elektro mantaj)*;<br>4-guruh Yosh payvandchilar guruhi *(elektro payvandlash, gaz payvandlash, yarim avtomat payvandlash va argon payvandlash hamda metallarga ishlov berish).* | "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi, viloyat Savdo-sanoat palatasi, Samarqand shahridagi ishga marhamat monomarkaz, Samarqand IT markazi, TATU Samarqand filiali, Yoshlar ittifoqi va Yig'in ma'muriyati |
| $13^{30} – 14^{00}$ | Tushlik. | Yig'in ma'muriyati. |
| $14^{00} – 14^{30}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $14^{30} – 15^{15}$ | **Saf tayyorgarligi.**<br>*Saf va uning elementlari.* | Yig'in ma'muriyati. |
| $15^{15} – 16^{00}$ | **Mavzu:** Jahon axborot tarmog'ida diniy tushunchalarni g'arazli maqsadda talqin etish usullari | Viloyat diniy qo'mita vakillari, Yoshlar ittifoqi, Markaz o'qituvchilari va Yig'in ma'muriyati |
| $16^{05} – 16^{50}$ | **Mavzu:** Etika asoslari va vazifalari. | Samarqand davlat universiteti, Yoshlar ittifoqi |
| $17^{00}$-$18^{30}$ | **Tarbiyaviy ahamiyatiga ega tadbir:** "Diniy ekstremizm va terrorizm taraqqiyot va barqarorlikka tahdid" mavzusida uchrashuv. | Viloyat IIB va viloyat din ishlari qo'mitasi mutaxassislari, Yoshlar ittifoqi |
| $18^{30}$-$19^{00}$ | Shaxsiy vaqt | Yig'in ma'muriyati |

| | | |
|---|---|---|
| $19^{00} – 19^{30}$ | Kechki ovqat. | |
| $19^{30} – 20^{00}$ | **“Feyed-back”** ( kun tahlili). | Yig‘in ma’muriyati |
| $20^{00} – 21^{30}$ | **“Ilhaq”** kinofilmini namoyishi va muhokamasi. | Samarqand garnizoni MvaMM |
| $21^{45} –22^{00}$ | Kechki sayr. | Yig‘in ma’muriyati |
| $22^{10} –22^{40}$ | Shaxsiy vaqt | Yig‘in ma’muriyati |
| $23^{00}$ | Uyqu. | Yig‘in ma’muriyati |
| | **3-kun. 2025-yil** | |
| $06^{00}$ | Shaxsiy tarkibning umumiy uyg‘onishi. | Yig‘in ma’muriyati. |
| $06^{10}$ - $07^{00}$ | Ertalabki badan tarbiya. | |
| $07^{00}$ - $07^{40}$ | Yig‘in ishtirokchilarini yuvinishi uchun shaxsiy vaqt. | |
| $07^{40}$ - $08^{00}$ | Yig‘in ishtirokchilarini ertalabki ko‘rikdan o‘tkazish. | |
| $08^{00} – 08^{20}$ | Nonushta. | |
| $08^{20} – 08^{30}$ | Yig‘in ishtirokchilarni mashg‘ulot joylariga tarqatish. | |
| $08^{45} – 09^{30}$ | **Huquqiy profilaktika tadbirlari**<br>**Mavzu: “Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor yo‘nalishlari va uning oldini olishning zamonaviy mexanizmlari”** mavzusida suxbat o‘tkazish. | Viloyat IIB vakillari,<br>Markaz professor va malakali o‘qituvchilari,<br>Yoshlar ishlari boshqarmasi |
| $09^{40}–13^{25}$ | Yig‘in ishtirokchilarini mutaxassisliklar bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish va bilimlarini oshirish maqsadida mashg‘ulotlar tashkil etish;<br>1-guruh Yosh tadbirkorlar guruhi (biznes reja tuzish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish);<br>2-guruh Yosh IT dasturchilar guruhi (kompyuterda ishlash va dastur tayyorlash dizayn );<br>3-guruh Yosh elektriklar guruhi *(uy elektro mantaj, sanoat elektro mantaj va zamoniyviy elektro mantaj)*;<br>4-guruh Yosh payvandchilar guruhi *(elektro payvandlash, gaz payvandlash, yarim avtomat payvandlash va argon payvandlash hamda metallarga ishlov berish).* | “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi, viloyat<br>Savdo-sanoat palatasi, Samarqand shahridagi ishga marhamat monomarkaz,<br>Samarqand IT markazi,<br>TATU Samarqand filiali,<br>Yoshlar ishlari boshqarmasi va Yig‘in ma’muriyati |
| $13^{30} – 14^{00}$ | Tushlik. | Yig‘in ma’muriyati. |
| $14^{00} – 14^{30}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $14^{30} – 15^{15}$ | **Jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlari:**<br>(*Otish nazariyasi, muhandislik, OQQH, harbiy topografiya, o‘quv trenajoridan amaliy otish*). | Markaz o‘qituvchilari va Yig‘in ma’muriyati |
| $15^{15} – 16^{00}$ | **Mavzu:** Axloqiy tamoyillar va me’yorlar. | Samarqand davlat unversiteti,<br>*Yoshlar ishlari boshqarmasi* |
| $16^{05} – 16^{50}$ | **“Biznes muloqot”** (moliyaviy savodxonlikni oshrish) soati | Markaziy bank,<br>Savdo-sanoat palatasi,<br>*Yoshlar ishlari boshqarmasi* |
| $17^{00} – 18^{30}$ | Harbiy prokuror kubogi uchun **“Yosh kitobxon”** ko‘rik tanlovlarini o‘tkazish. | Harbiy prokurotura, Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlari ittifoqi, Yig‘in ma’muriyati |
| $18^{30}$-$19^{00}$ | Shaxsiy vaqt | Yig‘in ma’muriyati. |
| $19^{00} – 19^{30}$ | Kechki ovqat. | |
| $19^{30} – 20^{00}$ | **“Feyed-back”** ( kun tahlili). | |

| | | |
|---|---|---|
| $20^{00}$ - $21^{00}$ | Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va ijodi haqida film namoyishi va muhokamasi. | Mahmudxo'ja Behbudiyning uy muzeyi direktori G.Axmedov, Samarqand garnizoni MvaMM |
| $21^{00}$ –$21^{30}$ | "Axborot" informatsion teledasturini ko'rish. | Yig'in ma'muriyati. |
| $21^{30}$ –$21^{50}$ | Kechki sayr. | |
| $21^{50}$ –$22^{00}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $22^{00}$ | Uyqu. | |
| **4-kun 2025-yil** | | |
| $06^{00}$ | Shaxsiy tarkibning umumiy uyg'onishi. | Yig'in ma'muriyati. |
| $06^{10}$ - $07^{00}$ | Ertalabki badan tarbiya. | |
| $07^{00}$ - $07^{40}$ | Yig'in ishtirokchilarini yuvinishi uchun shaxsiy vaqt. | |
| $07^{40}$ - $08^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarini ertalabki ko'rikdan o'tkazish. | |
| $08^{00}$ – $08^{20}$ | Nonushta. | |
| $08^{20}$ – $08^{30}$ | Yig'in ishtirokchilarni mashg'ulot joylariga tarqatish. | |
| $08^{45}$ – $09^{30}$ | **Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik:** ***Mavzu:*** *Amir Temurning harbiy yurishlari va jahon harbiy san'ati rivojiga qo'shgan hissasi.* | Markaz professor va malakali o'qituvchilari |
| $09^{40}$–$13^{25}$ | Yig'in ishtirokchilarini mutaxassisliklar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish va bilimlarini oshirish maqsadida mashg'ulotlar tashkil etish;<br>1-guruh Yosh tadbirkorlar guruhi (biznes reja tuzish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish);<br>2-guruh Yosh IT dasturchilar guruhi (kompyuterda ishlash va dastur tayyorlash dizayn );<br>3-guruh Yosh elektriklar guruhi *(uy elektro mantaj, sanoat elektro mantaj va zamoniyviy elektro mantaj)*;<br>4-guruh Yosh payvandchilar guruhi *(elektro payvandlash, gaz payvandlash, yarim avtomat payvandlash va argon payvandlash hamda metallarga ishlov berish).* | "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi, viloyat Savdo-sanoat palatasi, Samarqand shahridagi ishga marhamat monomarkaz, Samarqand IT markazi, TATU Samarqand filiali, Yoshlar ittifoqi va Yig'in ma'muriyati |
| $13^{30}$ – $14^{00}$ | Tushlik. | Yig'in ma'muriyati. |
| $14^{00}$ – $14^{30}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $14^{30}$ – $15^{15}$ | **Saf tayyorgarligi.** *Saf va uning elementlari.* | Yig'in ma'muriyati. |
| $15^{15}$ – $16^{00}$ | **Mavzu: "Alkogol ichimliklar inson xulq-atvoriga salbiy o'zgarishlar keltiruvchi muammo"** mavzusida suhbat o'tkazish. | Samarqand harbiy gospitali, Markaz o'qituvchilari va yig'in ma'muriyati |
| $16^{05}$ – $16^{50}$ | **Mavzu:** Axloqiy madaniyat va shaxs axloqiy tarbiyasi. | Samarqand davlat universiteti, *Yoshlar ittifoqi* |
| $17^{00}$-$18^{30}$ | **Mavzu: "Yo'l qoidasi – umr foydasi"** mavzusida davra suhbati o'tkazish. | Samarqand viloyati IIB jamoat xavfsizlik xizmati, yo'l harakati havfsizligi boshqarmasi, *Yoshlar ishlari agentligi* |
| $18^{30}$-$19^{00}$ | Shaxsiy vaqt | Yig'in ma'muriyati. |
| $19^{00}$ – $19^{30}$ | Kechki ovqat. | |
| $19^{30}$ – $20^{00}$ | **"Feyed-back"** ( kun tahlili). | |
| $20^{00}$ - $21^{00}$ | Vatanparvarlik ruhidagi **"Armon"** kinofilmini namoyishi va muhokamasi. | "O'zbekkino" milliy agentligi viloyat bo'linmasi, Samarqand garnizoni M va MM |

| | | |
|---|---|---|
| $21^{00}-21^{30}$ | **"Axborot"** informatsion teledasturini ko'rish. | Yig'in ma'muriyati. |
| $21^{30}-21^{50}$ | Kechki sayr. | |
| $21^{50}-22^{00}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $22^{00}$ | Uyqu. | |
| | **5-kun. 2025-yil** | |
| $07^{00}$ | Shaxsiy tarkibning umumiy uyg'onishi. | Yig'in ma'muriyati. |
| $07^{00}-07^{40}$ | Yig'in ishtirokchilarini yuvinishi uchun shaxsiy vaqt. | |
| $07^{40}-08^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarini ertalabki ko'rikdan o'tkazish. | |
| $08^{00}-08^{20}$ | Nonushta. | |
| *$08^{30}-08^{50}$* | Yig'in ishtirokchilarni yo'riqnoma berish. | |
| $09^{00}-09^{50}$ | **"Jamoaning jipslashtiruvchi"** motivatsion seminar-trening o'tkazish. | Samarqand davlat universiteti mutaxassis psixologlar, *Yoshlar ittifoqi* |
| $10^{00}-10^{55}$ | **Mavzu:** Odob-axloq meyorlarining kelib chiqish, ota va bola munosabatlarning diniy qarashlari mavzusida suxbat. | Hududiy diniy qo'mita, viloyat xokimligi, Yig'in ma'muriyati, *Yoshlar ittifoqi.* |
| $11^{00}-13^{20}$ | **Mavzu:** Yurt ozodligi kuychilari Jadidlar. (Maxmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy) | Markaz o'qtuvchilari, Yig'in ma'muriyati. |
| $13^{30}-14^{30}$ | Tushlik. | Yig'in ma'muriyati. |
| $14^{30}-15^{30}$ | **"Shaxmat"** Yoshlar ishlari agentligi kubogi | Yoshlar ishlari agentligi |
| $15^{30}-18^{30}$ | Viloyat filarmoniya bo'limi hamda MHO harbiy orkestrining **konsert dasturi.** | Viloyat filarmoniyasi, Samarqand garnizoni MvaMM, *Yoshlar ittifoqi.* |
| $18^{30}-18^{45}$ | Shaxsiy vaqt | Yig'in ma'muriyati. |
| $19^{00}-19^{30}$ | Kechki ovqat. | |
| $19^{30}-20^{00}$ | **"Feyed-back"** ( kun tahlili). | Yig'in ma'muriyati |
| $20^{00}-21^{00}$ | Vatanparvarlik ruhidagi **"101-reys"** film namoyishi. | Samarqand garnizoni M va MM |
| $21^{00}-21^{30}$ | **"Axborot"** informatsion teledasturini ko'rish. | Yig'in ma'muriyati. |
| $21^{30}-21^{50}$ | Kechki sayr. | Yig'in ma'muriyati. |
| $21^{50}-22^{00}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $22^{00}$ | Uyqu. | |
| | **6-kun. 2025-yil** | |
| $07^{00}$ | Shaxsiy tarkibning umumiy uyg'onishi. | Yig'in ma'muriyati. |
| $07^{00}-07^{40}$ | Yig'in ishtirokchilarini yuvinishi uchun shaxsiy vaqt. | |
| $07^{40}-08^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarini ertalabki ko'rikdan o'tkazish. | |
| $08^{00}-08^{20}$ | Nonushta. | |
| *$08^{30}-08^{50}$* | Yig'in ishtirokchilarni yo'riqnoma berish. | |
| $09^{00}-09^{50}$ | **"Muvafaqqiyatga erishish sirlari"** mavzusida motivasion seminar-trening o'tkazish. | MHO boshqaruv aparati harbiy psixologi |
| $10^{00}-10^{40}$ | **"Vatanparvar"** teleko'rsatuvini namoyishi | Yig'in ma'muriyati. |
| $10^{40}-13^{30}$ | Okrug qo'mondoni kubogi uchun **"Harbiy estafeta"** musoboqalarini o'tkazish. | MHO jangovar tayyorgarlik boshqarmasi va yig'in ma'muriyati |
| $13^{30}-14^{30}$ | Tushlik. | Yig'in ma'muriyati. |
| $14^{30}-15^{00}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $15^{00}-18^{30}$ | Samarqand shahridagi **"Registon"** maydoni va **"Boqiy shahar"** turizm markaziga sayohat hamda **Maxmudxo'ja Behbudiy** uy muzeyiga ekskursiya uyushtirish. | Samarqand viloyati hokimligi, viloyat transport boshqarmasi, viloyat IIB YHX boshqarmasi, Yoshlari ishlari boshqarmasi, Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi, Yig'in ma'muriyati |

| | | |
|---|---|---|
| $18^{30}$-$18^{45}$ | Shaxsiy vaqt | Yig'in ma'muriyati. |
| $19^{00}$ – $19^{30}$ | Kechki ovqat. | |
| $19^{30}$ – $20^{00}$ | **"Feyed-back"** ( kun tahlili). | |
| $20^{00}$ –$21^{00}$ | Samarqand garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazi harbiy orkestr jamoasining konsert dasturi. | Samarqand garnizoni M va MM |
| $21^{00}$ –$21^{30}$ | **"Tahlilnoma axborot"** informatsion teledasturini ko'rish. | Yig'in ma'muriyati. |
| $21^{30}$ –$21^{50}$ | Kechki sayr. | |
| $21^{50}$ –$22^{00}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $22^{00}$ | Uyqu. | |
| | **7-kun. 2025-yil** | |
| $06^{00}$ | Shaxsiy tarkibning umumiy uyg'onishi. | Yig'in ma'muriyati. |
| $06^{10}$ - $07^{00}$ | Ertalabki badan tarbiya. | |
| $07^{00}$ - $07^{40}$ | Yig'in ishtirokchilarini yuvinishi uchun shaxsiy vaqt. | |
| $07^{40}$ - $08^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarini ertalabki ko'rikdan o'tkazish. | |
| $08^{00}$ – $08^{20}$ | Nonushta. | |
| $08^{20}$ – $08^{30}$ | Yig'in ishtirokchilarni mashg'ulot joylariga tarqatish. | |
| $08^{45}$ – $09^{30}$ | **Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik**<br>**Mavzu:** Jaloliddin Manguberdining mardligi va jasorati. | Samarqand davlat universiteti professor o'qituvchilari va Markaz professor va malakali o'qituvchilari, *Yoshlar ittifoqi* |
| $09^{40}$–$13^{25}$ | Yig'in ishtirokchilarini mutaxassisliklar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish va bilimlarini oshirish maqsadida mashg'ulotlar tashkil etish;<br>1-guruh Yosh tadbirkorlar guruhi (biznes reja tuzish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish);<br>2-guruh Yosh IT dasturchilar guruhi (kompyuterda ishlash va dastur tayyorlash dizayn );<br>3-guruh Yosh elektriklar guruhi *(uy elektro mantaj, sanoat elektro mantaj va zamoniyviy elektro mantaj)*;<br>4-guruh Yosh payvandchilar guruhi *(elektro payvandlash, gaz payvandlash, yarim avtomat payvandlash va argon payvandlash hamda metallarga ishlov berish).* | "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi, viloyat Savdo-sanoat palatasi, Samarqand shahridagi ishga marhamat monomarkaz, Samarqand IT markazi, TATU Samarqand filiali, Yoshlar ittifoqi va Yig'in ma'muriyati |
| $13^{30}$ – $14^{00}$ | Tushlik. | Yig'in ma'muriyati. |
| $14^{00}$ – $14^{30}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $14^{30}$ – $15^{15}$ | **Mavzu: "Onlayn qimor – inqiroz va halokat tomon bosilgan qadam"** mavzusida suxbat o'tkazish. | Viloyat prokuraturasi, Yig'in ma'muriyati, *Yoshlar ittifoqi* |
| $15^{15}$ – $16^{30}$ | **"Prokuror va yoshlar"** farmatidagi uchrashuv | IIB viloyat boshqarmasi, Sport bosh boshqarmasi |
| $16^{30}$ – $18^{30}$ | **"Valeybol"** bo'yicha viloyat IIB boshqarmasi boshlig'ining sovrini uchun musobaqa o'tkazish. | Samarqand harbiy prokurori |
| $18^{30}$-$19^{00}$ | Shaxsiy vaqt. | Yig'in ma'muriyati |
| $19^{00}$ – $19^{30}$ | Kechki ovqat. | |
| $19^{30}$ – $20^{00}$ | **"Feyed-back"** ( kun tahlili). | |
| $20^{00}$ - $21^{00}$ | Vatanparvarlik ruhidagi **"Abdulla Avloniy"** kinofilmi namoyishi. | Samarqand garnizoni M va MM |
| $21^{00}$ –$21^{30}$ | **"Axborot"** informatsion teledasturini ko'rish. | Yig'in ma'muriyati. |

| | | |
|---|---|---|
| $21^{30}-21^{50}$ | Kechki sayr. | |
| $21^{50}-22^{00}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $22^{00}$ | Uyqu. | |
| | **8-kun. 2025-yil** | |
| $06^{00}$ | Shaxsiy tarkibning umumiy uyg'onishi. | Yig'in ma'muriyati. |
| $06^{10}$ - $07^{00}$ | Ertalabki badan tarbiya. | |
| $07^{00}$ - $07^{40}$ | Yig'in ishtirokchilarini yuvinishi uchun shaxsiy vaqt. | |
| $07^{40}$ - $08^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarini ertalabki ko'rikdan o'tkazish. | |
| $08^{00}-08^{20}$ | Nonushta. | |
| $08^{20}-08^{30}$ | Yig'in ishtirokchilarni mashg'ulot joylariga tarqatish. | |
| $08^{45}-09^{30}$ | **Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik**<br>**Mavzu:** Harbiy san'at tarixi. Shiroq, To'maris va Spitamenning jasorati. | Markaz professor va malakali o'qituvchilari |
| $09^{40}-13^{25}$ | Yig'in ishtirokchilarini mutaxassisliklar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish va bilimlarini oshirish maqsadida mashg'ulotlar tashkil etish;<br>1-guruh Yosh tadbirkorlar guruhi (biznes reja tuzish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish);<br>2-guruh Yosh IT dasturchilar guruhi (kompyuterda ishlash va dastur tayyorlash dizayn );<br>3-guruh Yosh elektriklar guruhi *(uy elektro mantaj, sanoat elektro mantaj va zamoniyviy elektro mantaj)*;<br>4-guruh Yosh payvandchilar guruhi *(elektro payvandlash, gaz payvandlash, yarim avtomat payvandlash va argon payvandlash hamda metallarga ishlov berish)*. | "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi, viloyat Savdo-sanoat palatasi, Samarqand shahridagi ishga marhamat monomarkaz, Samarqand IT markazi, TATU Samarqand filiali, Yoshlar ishlari boshqarmasi va Yig'in ma'muriyati |
| $13^{30}-14^{00}$ | Tushlik. | Yig'in ma'muriyati. |
| $14^{00}-14^{30}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $14^{30}-15^{15}$ | Harbiy prokuratura xodimlari tomonidan profilaktik suxbat o'tkazish. | Markaz qo'mondonligi va yig'in ma'muriyati |
| $15^{15}-16^{00}$ | **Mavzu:** Nutq va muomala madaniyatining umumiy qoidalari. | Samarqand davlat universiteti, *Yoshlar ishlari boshqarmasi* |
| $16^{05}-16^{50}$ | **Mavzu:** Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni tartibi. Jarohat turlari. | Markaz o'qituvchilari |
| $17^{00}$-$19^{00}$ | Viloyat hokimi kubogi uchun **"Milliy kurash"** musobaqasi | Viloyati hokimligi, Sport bosh boshqarmasi |
| $19^{00}-19^{30}$ | Kechki ovqat. | Yig'in ma'muriyati |
| $19^{30}-20^{00}$ | **"Feyed-back"** ( kun tahlili). | |
| $20^{00}$ - $21^{00}$ | Vatanparvarlik ruhidagi **"Ibrat"** kinofilmini namoyishi va muhokamasi. | Samarqand garnizoni M va MM |
| $21^{00}-21^{30}$ | **"Axborot"** informatsion teledasturini ko'rish. | Yig'in ma'muriyati. |
| $21^{30}-21^{50}$ | Kechki sayr. | |
| $21^{50}-22^{00}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $22^{00}$ | Uyqu. | |
| | **9-kun. 2025-yil** | |
| $06^{00}$ | Shaxsiy tarkibning umumiy uyg'onishi. | Yig'in ma'muriyati |
| $06^{10}$ - $07^{00}$ | Ertalabki badan tarbiya. | |
| $07^{00}$ - $07^{40}$ | Yig'in ishtirokchilarini yuvinishi uchun shaxsiy vaqt. | |
| $07^{40}$ - $08^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarini ertalabki ko'rikdan o'tkazish. | |
| $08^{00}-08^{20}$ | Nonushta. | |

| | | |
|---|---|---|
| $08^{20} – 08^{30}$ | Yig'in ishtirokchilarni mashg'ulot joylariga tarqatish. | |
| $08^{45} – 09^{30}$ | **Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik**<br>**Mavzu:** Zahiriddin Muhammad Boburning boy ma'naviy merosi. | Samarqand davlat universiteti professor o'qituvchilari va Markaz professor va malakali o'qituvchilari, Yoshlari ishlari boshqarmasi |
| $09^{40}–13^{25}$ | Yig'in ishtirokchilarini mutaxassisliklar bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish va bilimlarini oshirish maqsadida mashg'ulotlar tashkil etish;<br>1-guruh Yosh tadbirkorlar guruhi (biznes reja tuzish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish);<br>2-guruh Yosh IT dasturchilar guruhi (kompyuterda ishlash va dastur tayyorlash dizayn );<br>3-guruh Yosh haydovchilar *(avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, avto elektro mantaj)*;<br>4-guruh Yosh payvandchilar guruhi *(elektro payvandlash, gaz payvandlash, yarim avtomat payvandlash va argon payvandlash hamda metallarga ishlov berish).* | "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi, viloyat Savdo-sanoat palatasi, Samarqand shahridagi ishga marhamat monomarkaz, Samarqand IT markazi, TATU Samarqand filiali, Yoshlari ishlari boshqarmasi va Yig'in ma'muriyati |
| $13^{30} – 14^{00}$ | Tushlik. | Yig'in ma'muriyati |
| $14^{00} – 15^{30}$ | "Zakovat" Yoshlar ittifoqi kubogi | Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi |
| $15^{30} – 17^{00}$ | **Amaliy otish mashg'uloti:** O'qotar qurollaridan amaliy (PKST) o'q otish mashqlarini bajarish (amaliy). | Markaz qo'mondonligi |
| $17^{10} – 19^{00}$ | Yig'in ishtirokchilari bilan gulxan atrofida **"Qo'mondon va yoshlar"** uchrashuvini tashkil etish. | MHO qo'mondonligi<br>Yoshlar ishlari viloyat boshqarmasi |
| $19^{00} – 19^{30}$ | Shaxsiy vaqt | Yig'in ma'muriyati. |
| $19^{30} – 20^{00}$ | Kechki ovqat. | |
| $20^{00} – 21^{30}$ | **"Quvnoqlar va zukkolar"** terma jamoasining konsert dasturi. | Samarqand garnizoni M va MM |
| $21^{30} –21^{50}$ | Kechki sayr. | Yig'in ma'muriyati. |
| $21^{50} –22^{00}$ | Shaxsiy vaqt | |
| $22^{00}$ | Uyqu. | |
| **10-kun. 2025-yil** | | |
| $06^{00}$ | Shaxsiy tarkibning umumiy uyg'onishi. | Yig'in ma'muriyati. |
| $06^{10} - 07^{00}$ | Ertalabki badan tarbiya. | |
| $07^{00} - 07^{40}$ | Yig'in ishtirokchilarini yuvinishi uchun shaxsiy vaqt. | |
| $07^{40} - 08^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarni ertalabki ko'rikdan o'tkazish. | |
| $08^{00} – 08^{20}$ | Nonushta. | |
| $08^{20} – 09^{30}$ | Yig'in ishtirokchilarning tantanali yopilish marosimiga tayyorgarlik ko'rishi. | |
| $10^{00} – 11^{30}$ | **Yig'inning tantanali yopilish marosimi** (Yig'in davomida faol ishtirok etgan, o'tkazilgan musoboqalarda g'oliblikni qo'lga kiritganlarni taqdirlash marosimi va konsert dasturi) | Viloyat hokimligi,<br>MHO qo'mondonligi,<br>viloyat madaniyat boshqarmasi. |
| $11^{30} - 13^{00}$ | Yig'in ishtirokchilarni yashash manzillariga kuzatish | IIB, Yig'in ma'muriyati, Yoshlar ishlari viloyat boshqarmasi va Yoshlar ittifoqi. |

*Izoh: Belgilangan dasturda belgilangan vazifalarning o'z muddatida amalga oshirilishiga tegishli korxona va tashkilot rahbarlari shaxsan javobgar hisoblanadi.*

*Viloyat hokimining*
*2025-yil ___-iyuldagi*
*___-sonli bayoniga*
*3-ilova*

**Joriy yilning iyun oyida Samarqand viloyatida tashkil etiladigan “Jasorat maktabi” yig‘iniga tuman va shaharlar tomonidan olib kelinadigan yoshlar bo‘yicha taqsimot**
**JADVALI**

| № | Hudud nomi | Yoshlar soni |
|---|---|---|
| 1. | Samarqand shahri | 10 |
| 2. | Kattaqo‘rg‘on shahri | 4 |
| 3. | Bulung‘ur tumani | 6 |
| 4. | Jomboy tumani | 4 |
| 5. | Ishtixon tumani | 7 |
| 6. | Kattaqo‘rg‘on tumani | 9 |
| 7. | Narpay tumani | 6 |
| 8. | Nurobod tumani | 3 |
| 9. | Oqdaryo tumani | 4 |
| 10. | Payariq tumani | 7 |
| 11. | Pastdarg‘om tumani | 10 |
| 12. | Paxtachi tumani | 5 |
| 13. | Samarqand tumani | 6 |
| 14. | Toyloq tumani | 6 |
| 15. | Urgut tumani | 10 |
| 16. | Qo‘shrabot tumani | 3 |
| **Jami** | | **100 nafar** |

*Viloyat hokimining*
*2025-yil ___-iyuldagi*
*___-sonli bayoniga*
*2-ilova*

UMUMIY BO'LIM
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI

**“Jasorat maktabi” loyihasida 2025-yil 2-mavsumida ishtirok etuvchi yoshlar to‘g‘risida**

**MA’LUMOT**

| T/r | Ishtirokchining F.I.Sh. | Tug‘ilgan yili va yashash manzili | Toifasi | Foto (3x4) | Telefon raqami |
|---|---|---|---|---|---|
| **Urgut tumani** | | | | | |
| **1.** | Abdujalilov Humoyin Raximovich | Urgut tumani Omonqo‘ton mahallasi 09.05.2005. | **Profilaktika ro‘yxatida turadi** |  | **93-342-35-28** |
| **2.** | | | | | |
| **3.** | | | | | |
| **4.** | | | | | |
| **5.** | | | | | |
| **6.** | | | | | |
| **7.** | | | | | |
| **8.** | | | | | |
| **9.** | | | | | |
| **10.** | | | | | |